

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” **XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH:  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA KOLLABORATIV TA’LIM INTEGRATSIYASI**

**Xolboyeva Mahzuna**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**

**Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi**

**2-bosqich magistranti**

**[xolboevamahzuna@gmail.com](mailto:xolboevamahzuna@gmail.com)**

**Ilmiy rahbar: Boshlang‘ich ta’lim metodikasi**

**kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD) S.Q.Eshboyeva**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganiladi. Muallif kollaborativ yondashuv, modulli ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlarning o‘quvchilar bilish faoliyatiga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga tayanilgan holda, ta’lim jarayonida hamkorlik va muloqotning mustaqil fikrlashni shakllantirishdagi roli asoslanadi. Maqolada mavjud pedagogik muammolar, jumladan, an’anaviy o‘qitish metodlarining cheklovlari va metodik ta’minotning yetarli emasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Muammo yechimi sifatida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tizimli va izchil qo‘llash tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil fikrlash, kollaborativ yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiya, modulli ta’lim, interfaol metodlar.

**Аннотация.** В данной статье исследуются теоретические и практические основы развития самостоятельного мышления учащихся в начальном образовании. Автор анализирует влияние коллаборативного подхода, модульных технологий обучения и интерактивных методов на познавательную деятельность учеников. В исследовании, опираясь на социально-культурную теорию развития Л.С. Выготского, обосновывается роль сотрудничества и общения в формировании самостоятельного мышления. В статье выявлены существующие педагогические проблемы, в частности ограниченность традиционных методов обучения и недостаточность

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

методического обеспечения. В качестве решения проблемы рекомендуется системное и последовательное применение современных педагогических технологий.

**Ключевые слова:** самостоятельное мышление, коллаборативный подход, начальное образование, педагогическая технология, модульное обучение, интерактивные методы.

**Annotation.** This article examines the theoretical and practical foundations of developing independent thinking skills among primary school students. The author analyzes the impact of collaborative approaches, modular learning technologies, and interactive methods on students’ cognitive activities. Drawing on L.S. Vygotsky’s sociocultural theory of development, the study substantiates the role of cooperation and communication in fostering independent thinking. The article identifies existing pedagogical challenges, including the limitations of traditional teaching methods and insufficient methodological support. The systematic and consistent application of modern pedagogical technologies is recommended as a solution to these challenges.

**Keywords:** independent thinking, collaborative approach, primary education, pedagogical technology, modular learning, interactive methods.

**Kirish.** Hozirgi davrda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta‘limning zamonaviy konsepsiyalarida o‘quvchi faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida talqin qilinib, uning bilimlarni mustaqil izlanish, amaliy faoliyat va ijtimoiy muloqot orqali o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang‘ich sinflardanoq bolalarda erkin fikr yuritish, tahliliy yondashish, taqqoslash hamda umumlashtirib xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Mustaqil fikrlash tushunchasi pedagogik va psixologik adabiyotlarda shaxsning o‘quv jarayonida berilgan axborotni passiv qabul qilmasdan, balki uni anglash, tahlil qilish, baholash va yangi vaziyatlarga mos ravishda qo‘llash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bunday fikrlash turi o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida faol pozitsiyani egallashini,

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

savollar qo‘yishini, muammoli vaziyatlarni anglashini va ularni hal etish yo‘llarini mustaqil izlashini taqozo etadi<sup>1</sup>.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra, bilishga qiziqishning yuqoriligi, tasavvur va obrazli tafakkurning ustunligi, taqlid va muloqot orqali o‘rganishga moyilligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayonida o‘yin, suhbat, muammoli topshiriqlar, vizual materiallar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlaridan keng foydalanish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sohasida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish jarayonida o‘quv rejaları hamda darsliklar muntazam ravishda yangilanib bormoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchilarga nazariy bilim berish bilan cheklanmay, ularda kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga yechim topish hamda jamiyatdagi munosabatlarda faol qatnasha olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Davlat ta’lim standartlarida ham o‘quvchilarning muloqotga kirishish, jamoada ishlash, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish kompetensiyalariga alohida urg‘u berilgan. Shu bilan birga, ta’lim amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayoni ko‘p hollarda an’anaviy o‘qitish metodlari doirasida cheklanib qolmoqda. Darslarda o‘qituvchining yetakchi roli, reproduktiv topshiriqlarning ustunligi va tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan faoliyat shakllari o‘quvchilarning bilish faolligini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Buning oqibatida o‘quvchilarda savol qo‘yish, murakkab vaziyatlarda mustaqil yechim topish hamda o‘z fikrini dalillar asosida ifodalash malakalari to‘laqonli shakllanmay qolmoqda<sup>2</sup>.

So‘nggi yillarda pedagogik amaliyotga interfaol va innovatsion metodlar, jumladan, muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dars shakllari keng joriy etilmoqda. Ushbu metodlar o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o‘z fikrini erkin bayon etishga va tengdoshlar bilan hamkorlikda

<sup>1</sup> Abdullaeva Q. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari va ularning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2021. – 156 b.

<sup>2</sup> Inoyatova D. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – B. 103–108.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

muammolarni hal etishga undaydi. Biroq mazkur yondashuvlarning tizimli va izchil qo‘llanilishi barcha ta’lim muassasalarida bir xil darajada ta’minlanmagan.

Ilmiy tadqiqotlarda mustaqil fikrlashning shakllanishi ko‘p jihatdan o‘quv muhitining ijtimoiy xarakteriga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Xususan, L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri asosan muloqot va hamkorlik jarayonida rivojlanadi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayonida ularning o‘zaro aloqasi, fikr almashuvi va birgalikdagi faoliyatini tashkil etish muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan hozirgi holatni umumlashtirgan holda, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, o‘quv dasturlari va darsliklarda mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ulushi ortib bormoqda; ikkinchidan, o‘qituvchilar faoliyatida interfaol metodlardan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda; uchinchidan, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishi o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, metodik ta’minotning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning kollaborativ yondashuv bo‘yicha amaliy tayyorgarligi pastligi, baholash tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan mezonlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni talab etadi<sup>4</sup>.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilimlarni qiziqish asosida, faol ishtirok orqali o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish va pedagogik faoliyatini takomillashtirishga ham yordam beradi. Mustaqil fikrlash qobiliyati esa insonda bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu jarayon avvalo atrof-muhitni kuzatish, voqea-hodisalarni anglash va ular haqida tasavvur hosil qilish orqali yuzaga keladi. Bola dunyoga kelgan ilk davrlardanoq kattalarning faoliyati, tabiatdagi hodisalar hamda ijtimoiy munosabatlarni kuzatib boradi va shu asosda uning tasavvuri hamda nutqi rivojlana boshlaydi. Sezgi

<sup>3</sup> Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 240 b.

<sup>4</sup> Safarova R. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 168 b.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

organlari orqali qabul qilingan ma’lumotlar bolaning tafakkurini boyitib, unda borliqni tushunishga bo’lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Natijada bolada turli savollar paydo bo’lib, u hodisalarning mazmunini anglashga intiladi<sup>5</sup>.

Masalan, bolalar atrofdagi olam haqida turli savollar bera boshlaydilar: osmonda nimalar mavjudligi, nega tun va kun almashishi, qushlarning uchishi, yomg’ir yoki qorning qanday paydo bo’lishi kabi savollar ularda katta qiziqish uyg’otadi. Ba’zan ular insonlarning tashqi ko’rinishi, ranglarning turlicha bo’lishi yoki tabiat hodisalari haqida ham javob izlaydilar. Bu holat bolaning borliqni anglashga bo’lgan tabiiy ehtiyojidan dalolat beradi.

Aksariyat ota-onalar farzandlarining bunday savollariga duch keladilar. Masalan, ayrim bolalar insonlarning yuz tuzilishi nima sababdan bir-biridan farq qilishini so’rashi mumkin. Kattalar esa ba’zan bunga qanday izoh berishni bilmay qoladilar. Shunga qaramay, bolaning qiziqishiga befarq bo’lmaslik muhimdir. Chunki savollarga e’tibor bilan javob berish bolada tafakkur, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda juda qiziquvchan bo’lib, ular kattalardan doimo yangi ma’lumot olishga intiladilar. Agar ota-onalar bolaning savollarini mensimasalar yoki unga qo’pol munosabatda bo’lsalar, bu holat uning fikrlash faolligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Natijada bola o’z fikrini bildirishdan tortinadigan, atrofdagi voqea-hodisalarga loqayd qaraydigan bo’lib qoladi. Bolalarning nutqi va tafakkuri ayniqsa maktab ta’limiga tayyorgarlik davrida faol rivojlanadi. Bu bosqichda ular kattalar bilan muloqot qilish, eshitgan va ko’rgan ma’lumotlarini tushunish hamda ularni izchil tarzda bayon etishni o’rganadilar. Shu bilan birga, taqqoslash, guruhlarga ajratish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat elementlaridan foydalanishga harakat qiladilar. Ana shu jarayonlar orqali bolada mustaqil fikrlash asta-sekin shakllanib boradi<sup>6</sup>.

Maktabgacha ta’lim davrida shakllana boshlagan bolaning tafakkuri va bilish faoliyati maktab ta’limi jarayonida yanada rivojlanib, yangi bosqichga ko’tariladi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichi o’quvchining aqliy faoliyati, dunyoqarashi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda

<sup>5</sup> Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

<sup>6</sup> Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

muhim o‘rin tutadi. Shu sababli mazkur bosqichda tashkil etiladigan ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarning erkin fikr yuritishi, kuzatishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik tajribasi hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi<sup>7</sup>.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchini oddiy tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantira olishi kerak. O‘quvchilarni dars davomida mustaqil izlanishga undash, o‘z fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish va turli muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar faolligi oshadi, ular o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan erkin muloqotga kirishadi hamda bilimlarni tayyor holda emas, balki mustaqil faoliyat orqali egallashga harakat qiladilar.

Boshlang‘ich ta’limda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish ham alohida samaradorlikka ega. Modulli ta’lim o‘quv materialini mantiqiy qismlarga ajratgan holda o‘rganishni tashkil etadi va o‘quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantiradi. Mazkur texnologiya asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar bilimlarni bosqichma-bosqich egallaydi, mavzular ustida mustaqil ishlaydi hamda o‘z faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu orqali ularda mas’uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari shakllanadi<sup>8</sup>.

Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi samarali vositalardan biridir. O‘yin faoliyati bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, ularni dars jarayoniga faol jalb etadi. O‘yin davomida o‘quvchilar bilimlarni qiziqarli va yengil usulda o‘zlashtiradilar, shu bilan birga ularning tafakkuri, diqqati va xotirasi rivojlanadi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yinlar bolalarda o‘ziga ishonch hissini

<sup>7</sup> Abduraxmonova N.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, № 12. – P. 208–211.

<sup>8</sup> Inoyatova D.Q. Pedagogik texnikani shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlarining o‘rni // International Conference on Developments in Education. – Bursa, Turkey, 2024.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

shakllantiradi, erkin fikr yuritishga undaydi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Masalan, “Suratdagi xatoni top” o‘yini orqali o‘quvchi tasvirni diqqat bilan kuzatadi, undagi mantiqiy nomuvofiqliklarni aniqlaydi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Agar qish fasli tasvirlangan rasmda gullagan daraxt aks ettirilgan bo‘lsa, bola o‘z bilimlariga tayangan holda bu holatning noto‘g‘ri ekanligini tushuntiradi. Bu jarayonda uning kuzatuvchanligi, tafakkuri va tahliliy fikrlashi faollashadi. Shuningdek, “Bo‘lishi mumkin emas”, “Matndagi xatoni top”, rebus va boshqotirma kabi mashg‘ulotlar ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi<sup>9</sup>.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bugungi pedagogik amaliyotning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish metodlari doirasida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilish faolligini to‘liq namoyon etishga imkon bermaydi. Reproduktiv topshiriqlarning ustunligi, o‘qituvchining yetakchi roli va tayyor bilimlarni berishga yo‘naltirilgan yondashuv bolalarda savol qo‘yish, mustaqil yechim topish hamda o‘z fikrini dalillar asosida ifodalash malakalarining to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ijodiy va izchil foydalana olishi, har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishi hamda ta’lim jarayonini faol, qiziqarli va muammoga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishi zarur. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishning va raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning muhim garovi bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva Q. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari va ularning pedagogik ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2021. – 156 b.

<sup>9</sup> Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2008. – 398 с.

**“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL**

2. Abduraxmonova N.A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, № 12. – P. 208–211.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 240 b.
4. Inoyatova D. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish // Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – B. 103.
5. Inoyatova D.Q. Pedagogik texnikani shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlarining o‘rni // International Conference on Developments in Education. – Bursa, Turkey, 2024.
6. Safarova R. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 168 b.
7. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
8. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2008. – 398 с.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.